

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KAM AHAMIYATLI QILMISHLAR INSTITUTINING JINOYAT- HUQUQIY JIHATLARI

Payzullayeva Feruza Farxod qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi “Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 29-23-guruh o‘quvchisi Telefon: +998900620679

feruzafayzullayeva571@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif tomonidan jinoyat qonunchiligidagi jinoyatlarni istisno qiladigan holatlardan biri bo‘lgan kam ahamiyatli qilmishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kam ahamiyatli qilmish, formal huquqiy mezon, moddiy huquqiy mezon, subyektiv mezon.

Аннотация:

В данной статье автором рассматриваются менее существенные деяния, являющиеся одним из обстоятельств, исключающих преступления в уголовном праве.

Ключевые понятия: менее существенное деяние, формально-правовой критерий, материально-правовой критерий, субъективный критерий.

Abstract:

In this article, the author examines less significant acts, which are one of the circumstances excluding crimes in criminal law.

Key concepts: less significant act, formal legal criterion, material legal criterion, subjective criterion.

Ta‘bir joiz bo‘lsa, jinoyat huquqida kam ahamiyatli qilmishlar institutining tushunchasi va jinoyat huquqiy ahamiyati borasida so‘z yuritishdan avval, yaqinda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 11 noyabrda qabul qilingan “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish togrisida”gi PF-257 sonli farmonida keltirilgan fikrlar ham mazkur institutni chuqurroq tadqiq qilish, jinoyatlar kvalifikatsiyasi va terгови, umuman Yangi O‘zbekiston sharoitida jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ushbu yonalishga ilg'or xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish borasida tashlangan juda muhim qadam bolganligini e'tirof etish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ushbu Farmonda Yurtboshimiz "Mamlakatimizda tergov faoliyatida "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani toliq royobga chiqarish, jinoyatlarni oz vaqtda fosh etishni tashkil etish tergov organlarining faoliyatini qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili asosida takomillashtirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va zamon talablariga javob beradigan tergov sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini tubdan oshirish talab etilmoqda"¹, -deya ta'kidlab o'tgan edilar.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 14-moddasida jinoyat tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra jinoyat bu - jinoyat qonuni bilan taqiqlangan shaxsning aybli ijtimoiy xafli qilmish (harakat yoki harakatsizlikning) sodir etishi jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb ataladi. Albatta jinoyat haqida so'z yuritganda, uni istisno etadigan holatlarni e'tibordan chetda chiqarmaslik lozim. 'Ular orasida qilmishning jinoyatligini istisno etadigan holat sifatida kam ahamiyatli qilmishlar masalasi alohida e'tiborga molik. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 36-moddasiga muvofiq, garchi ushbu kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsa-da, o'zining kam ahamiyatligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi.

Kam ahamiyatli qilmish bu - jinoyat qonunida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari rasmiy jihatdan mavjud bo'lsada, o'zining kam ahamiyatligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan jinoyat hisoblanmaydigan harakat yoki harakatsizlikka aytiladi. Demak, kam ahamiyatli qilmish sodir etgan har qanday shaxs jinoyat javobgarlikka tortilishi mumkin emas degan xulosa o'z-o'zidan bizda shakillanadi. Biroq uning boshqa turdagi huquqiy javobgarlik masalasidan, ya'ni ma'muriy, fuqaroviy va mulkiy javobgarlik masalasidan ozod etmaydi.

Kam ahamiyatli qilmishlar yuqorida aytib o'tilganidek, jinoyat tarkibida mavjud barcha alomatlarga ega hisoblanadi, biroq asosiy farqlovchi mezon bu ushbu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-257-sonli 28.11.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5743>.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qilmishlarning ijtimoiy xavfli emasligi hisoblanadi. Kam ahamiyatli qilmishlar asosan shaxsning nomulkiy huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq vaziyatlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Masalan: K. ismli shaxs yo‘lda ketayotib xonadonlarning birining derazasi ochiqqligini ko‘rib shunchaki qiziqish tufayli derazadan boshini tiqib xonadon ichiga nazar tashlaydi. Bunda formal jihatdan qaralganda jinoyatning tarkibi, ya’ni shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligini buzish (JKning 141¹- moddasi) tarkibi mavjud biroq shaxsning harakatlarida ijtimoiy xavflilik bo‘lmaganligi sababli ushbu qilmishni jinoyat deb baholash mumkin emas. Yoki M. ismli shaxs yo‘lda bir o‘rtog‘ini ko‘rib uni ketmaysan men bilan qolasan deb ushlab turdi va 2 daqiqadan so‘ng harakatlarini hazilga yoyib uni qo‘yib yubordi. Bu qilmishda ham shaxsning erkini cheklash alomatlari mavjud biroq bu yerda ushbu harakatning ijtimoiy xavflilik darajasi yo‘qligi uni jinoyat sifatida e’tirof etishga to‘sqinlik qiladi. Yuqorida keltirilgan misollar formal tarkibli qilmishlarga tegishli bo‘lib, ayrim turdagi olimlar moddiy tarkibdagi qilmishlarni ham kam ahamiyatli deb e’tirof etish mumkin deb ta’kidlashadi. Masalan B. ismli shaxs maktab kutubxonasidagi kompyuter va uning jihozlarini o‘g‘rilash uchun kirib, u yerda kompyuterlar yo‘qligini ko‘rib stol ustida turgan bir dona qaychini olib chiqib ketadi va uni keyinchalik yo‘l - yo‘lakay tashlab yuboradi. Bu yerda B. ismli shaxsning harakatlari natijasida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etildi deb aytib bo‘lmaydi. Chunki bir dona qaychining bahosi u mo‘ljallagan kompyuterning bahosidan ancha past va bu yerda miqdor masalasi o‘ziga xos nozik chegara vazifasini o‘taydi. Kam ahamiyatli qilmishlar o‘zida ikki narsani mujassamlashtiradi va uni jinoyat deb baholab bo‘lmaydi:

Qilmishda ijtimoiy xavflilikning yo‘qligi o‘sha qilmishdagi moddiy yoki manaviy zararning juda kamligi yoinki, sezilarsizligi masalasiga bog‘liq. Bizning qonunchiligimizda aniq miqdor masalasi ochiq qolgan. Zamonaviy jinoyat huquqida ijtimoiy xavflilik masalasi aniqlashni bir qator usullari mavjud hisoblanadi va olimlar bu borada o‘z qarashlarini e’tirof etganlar. A.P.Kozlov fikriga ko‘ra “Ijtimoiy xavflilik bu - zarar xavfining yoki jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarga tahdidning vujudga kelishi,”² deb ta’kidlagan.

Ayrim toifa huquqshunos olimlar kam ahamiyatli qilmishlar o‘zida quyidagilarni talablarni o‘zida mujassamlashtirishi kerak deb ta’kidlashadi:

² Козлов А.П. Понятие преступления: Учебное пособие/Юридический центр Пресс, 2014, С-48



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Qilmish o'zida jinoyat kodeksidagi qaysidir moddaning tarkibini aks ettirishi, aynan to'g'ri qasd bilan qilinishi va o'sha qasd aynan kam ahamiyatli qilmishni sodir etishni mo'ljallagan bo'lishi, qilmishda ijtimoiy xavflilik bo'lmasligi lozim.

Yuqorida tushuntirilgan yo'sinda tasniflash ko'proq umumiy xususiyatga ega hisoblanadi va ko'p holatlarda yakuniy qaror sudning ichki hissiyotiga bog'liq bo'ladi.

Kam ahamiyatli qilmishlar haqida qonunchilikda keltirib o'tilgan normalar jinoyat qonunchiligining o'ta moslashuvchanligidan dalolat beradi. Uning moslashuvchanligining mazmuni qilmishning jinoyligi faqat o'sha qilmishda jamoatga haqiqiy ijtimoiy xavflilik yetishi yoki yetishi mumkinligi holatlarida jinoyat deb topilishida namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. Kam ahamiyatli qilmishlar esa formal jihatdan jinoyat deb e'tirof etilsa-da, biroq o'zining mohiyatiga ko'ra jinoy qilmishlardan farq qilishi bilan alohida o'rniga ega hisoblanadi.

Kam ahamiyatli qilmishlarni o'rganish etish jinoyat qonunchiligini nafaqat nazariy balki amaliy jihatdan ham sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Ular quyidagicha ifodalash mumkin:

Aynan kam ahamiyatli qilmishlar jinoyat qonunchigida muhim kategoriya hisoblangan ijtimoiy xavflilik tushunchasi mohiyatini to'g'ri anglashga yordam beradi;

Kam ahamiyatli qilmishlar qonun chiqaruvchi uchun kreminalizatsiya va dekriminalizatsiya masalasida o'ziga xos yo'nalish vazifasini o'tab beradi va shaxsning harakatlaridagi jinoy yoki jinoy bo'lmagan xatti-harakatarni chegaralash imkonini beradi;

Qonun chiqaruvchi kam ahamiyatli qilmish mezonlari orqali shakl (jinoy qilmish) va mohiyat (ijtimoiy xavflilik) o'rtasidagi dialektik ziddiyatni yechishda yordam beradi;

Huquqni qo'llash amaliyotida kam ahamiyatli qilmishlar o'ziga xos filtr vazifasini o'taydi, ya'ni juda oz (ahamiyatsiz) holatda jinoyat qonunchiligi normalarning buzilishi va isbot qilinmagan holatlarda har qanday vaziyat uchun ham jinoy javobgarlik keltirib chiqarmaslik masalasini ko'rsatib beradi.

Kam ahamiyatli qilmishlarni aniqlash qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksining 36-moddasiga ko'ra individual baholash belgilari, ya'ni har qanday qilmish uchun alohida hisobga olinishi lozim bo'lgan holatlar majmuyi mavjudligini ta'kidlab o'tgan. Bu esa bizga kam ahamiyatli qilmishlarni umumiy bir me'zon bo'yicha aniqlashni imkonsiz qiladi. Chunki har qanday jinoyat ham boshqalariga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o'xshamas individual jihatlariga ega bo'ladi, lekin bu kam ahamiyatli qilmish uchun umumiy baholash belgilarini ishlab chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Kam ahamiyatli qilmishlar bilan bog'liq holatlarni yanada aniqroq aniqlash va huquqni qo'llash amaliyotida mujmal holatlarni oldini olish qolaversa, huquqni muhofaza qiluvchi xodimlari tomonidan qo'llash amaliyotini osonlashtirish uchun bizga umumiy baholash mezonlarini ishlab chiqish taqozo etadi. Ammo ilmiy adabiyot va amaliyotni o'rganish mobaynida aniq bir baholash me'zonlari yo'qligini anglashiladi va kam ahamiyatli qilmishlar uchun namunaviy baholash me'zonlarini yaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 36-moddasi mavjudligini ko'rish va ularni quyidacha ifodalash mumkin:

Formal huquqiy mezon;

Moddiy huquqiy mezon;

Subyektiv mezon.

Formal huquqiy mezonning mohiyati shundaki, sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lishi lozimligidir. Jinoyat tarkibining bitta alomati mavjud bo'lmasa ham bu Jinoyat kodeksining 16-moddasi 2-qismiga ko'ra shaxsni javobgarlikka tortmaslikka asos hisoblanadi. Lekin qonunchilikda kam ahamiyatli qilmishlar borasida jinoyat tarkibini aniqlash masalasi borasida qonun ijodkorlari yagona qarorga kelishmagan. Ayrim huquq ijodkorlari kam ahamiyatli qilmishda jinoyat tarkibi umuman mavjud emas deb ta'kidlashadi.

Moddiy huquqiy mezon - ushbu mezonning mazmuni shundan iboratki qilmishda ijtimoiy xavflilik bo'lmasligi lozim. Bir qator olimlar kam ahamiyatli qilmishlar ijtimoiy xavflilikni o'zida mujassamlashtirmasligi lozim degan qarshni ma'qul ko'rishadi. Ushbu fikrni vujudga kelishida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 36-moddasini tahlil qilganda ushbu fikr shakillanadi. Boshqa bir qator olimlar esa "kam ahamiyatli qilmishdagi ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyatdagi ijtimoiy xavflilikka yetmaydi", deb fikrlashadi.

Subyektiv huquqiy mezon bu - ushbu huquqiy mezonning mohiyati shundaki qilmishda sezilarli zarar yetkazishni ko'zlamagan bo'lishi lozim. Jinoyatchi agar biror bir jinoyatni sodir etishni qasd qilib, o'ziga bog'liq bo'lmagan holda uni oxiriga yetkazolmasa, bu kam ahamiyatli qilmish deb emas, balki jinoyatga suiqasd deb topiladi. Biror bir qilmishni kriminallashtirish, ya'ni uni jinoyat deb e'tirof etishda qilmish natijasida yetkazilgan oqibatga bog'liq bo'ladi. Qilmishni baholashda oqibat vujudga kelgan yoki kelmaganligiga e'tibor qaratiladi hamda oqibat vujudga kelmasdan turib o'sha paytdagi qilmishni kam ahamiyatli deb aytib



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bo'lmaydi. Ammo bu talqin faqatgina qilmishning oqibatlarini moddiy tarkibli jinoyat deb e'tirof etilganda asosli hisoblanadi. Milliy qonunchiligimizda har qanday qilmishni kam ahamiyatli deb topish yoki topmaslik har bir vaziyat uchun alohida individual tarzda tegov va sudlar tomonidan yondashiladi bu esa kam ahamiyatli qilmish institutining hali ham aniq me'zonlari chegarasining yo'qligi, boshqacha qilib aytganda, uning norasmiyligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-257-sonli 28.11.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5743>.
4. Козлов А.П. Понятие преступления: Учебное пособие/Юридический центр Пресс, 2014, С-48.
5. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.

